

## OLY TA'LIMDA CHET TILINI O'QITISHDA AKADEMIK HALOLLIK TUSHUNCHASI VA BUNDA YOZISH KO'NIKMASINING O'RNI

**Ferangiz O'ktam qizi Bekniyozova**  
Buxoro davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada akademik halollik tushunchasi hamda oliy ta'limda bu tushuncha qay darajada shakllanganligi haqida so'z boradi. Oliy ta'limni tashkil etishda akademik halollikning o'rni va bunda yuzaga keladigan muammolar yuzasidan fikr va mulohazalar keltiriladi. Chet tilida yozish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va shu muammolar tufayli akademik olamda nohalollik muhitining yuzaga kelishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Akademik halollik, akademik yolg'on, ko'chirmachilik, akademik g'irromlik

### KIRISH

Barchamizga ma'lumki hozirda yurtimizda chet tilini o'rganishga va o'rgatishga bo'lgan talab kun sayin o'sib bormoqda. Butun dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va so'ziga ega bo'lishni istagan har bir jamiyat o'z oldiga chet tilini o'rganishni asosiy maqsadlardan biri qilib qo'yishi zamon talabi bo'lib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekistonda ham bu borada qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'rilayotgan islohotlarning neqadar samaradorligi esa ilm-fan olamida holollik muhitning nechog'lik qaror topganligida namoyon bo'ladi, ya'ni akademik holollik tushunchasi o'zi nima, u qanday prinsiplarga tayanadi, nimalar akademik holollik tamoyillarining buzilishiga olib keladi va bu tushuncha talaba yoshlarga nechog'lik tanish kabi masalalarda o'z ifodasini topadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Akademik holollik nima, u nimalarda namoyon bo'ladi degan savollarga olimlar va Akademik halollik xalqaro markazi quyidagicha izoh keltiradi: Ta'lim jarayoniga professor-o'qituvchilar va o'quvchilarning rostgo'ylik, ishonch, haqiqat, hurmat, mas'uliyat hamda jasorat kabi olti qadriyat bilan yondashishlari akademik halollikning muhim tamoyillari hisoblanadi[1]

Akademik g'irromlik qanday hollarda namoyon bo'ladi:

1. Ko'chirmachilik



2. Yolg'on malumotlar bazasini shakllantirish
3. O'zgalarning ishlarini o'zlashtirish
4. Imtihon jarayonlarida ruxsat etilmagan qurilmalardan foydalanish
5. Imtihonlarda o'rniga odam kiritish[2]
6. "Tanish-bilishchilik" asosida yolg'on baholash
7. Poraxo'rlik
8. Yakka tartibdagi vazifalarda jamoa bo'lib ishlash

Xorijiy tillar fakulteti birinchi kurs talabalarining dars va imtihon jarayonlari tahlil qilinganda va talabalar bilan suhbat uyishtirilganda akademik halollik tamoyillariga zid bo'lgan ko'chirmachilik, imtihon jarayonlarida ruxsat etilmagan qurilmalardan foydalanish, yakka tartibdagi vazifalarda guruh bo'lib ishlash holatlari keng tarqalganligiga guvoh bo'ldik. Bunga asosiy sabab talabalarga bilim olishga bo'lgan talabdan ko'ra ko'proq yaxshi baholanishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi, bundan tashqari darslarning to'g'ri shakllantirilmaganligi ya'ni o'tilayotgan mavzuning ko'lami o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari hamda mavzuga ajratilgan vaqtga nisbatan to'g'ri taqsimlanmaganligidaligi aniqlandi.

Xo'p o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari deganda nimalar nazarda tutilyapti?

Barchamizga malumki til o'rgatish jarayoni o'quvchida to'rt kompetensiyani o'zlashtirishga qaratilgan. Bular: o'qish, yozish, tinglab-tushunish, gapirish.

Oliy talimda imtihonlar asosan ikki shaklda, og'izaki va yozma shakllarda tashkil etiladi. Akademik halollik tamoyillarining buzilish holatlari esa ko'pincha yozma shakldagi imtihonlarda namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki o'quvchilarda yozish ko'nikmasining to'g'ri shakllantirilmaganligi talim sifatining buzilishiga hamda akademik nohalollik muhitining yuzaga kelishiga olib kelyapti. Aniqroq qilib aytganda talabalarda bilim egallashga bo'lgan xohishdan ko'ra baho olishga bo'lgan talabning ustuvorligi talim olish jarayonida ko'z bo'yamachilik, ko'chirmachilik va qator shu kabi nosog'lom akademik muhitning yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti.

Talabalarni yozish bilan bog'liq qanday muammolar qiynaydi degan savol yuzasidan ham tahlil o'tkazilganda quyidagicha muammolar aniqlandi:

1. Lug'at boyligining pastligi
2. Yozish tartiblaridan bexabarlik
3. Fikr va g'oyalar tarqoqligi
4. Gramatik bilimning sustligi

Bundan tashqari talabalarining o'z imkoniyat va bilimiga bo'lgan ishonchning pastligi ularni turli plagiat yo'llaridan

foydalanishga undamoqda. Bu esa talim sifatining keskin pasayishiga olib kelmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, halol akademik muhitga talabalar ongiga bilim olishga bo'lgan tashnalik hissini rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga undash va o'z mehnati mahsuli yuzasidan haqqoniy baholanish tuyg'usini uyg'otish orqali erishish mumkin.

## REFERENCES

1. McGowan, U. (2005). Academic integrity: An awareness and development issue for students and staff. *Journal of University Teaching & Learning Practice*, 2(3), 56-66.
2. Chankova, M. (2020). Teaching academic integrity: The missing link. *Journal of Academic Ethics*, 18(2), 155-173.
3. McCabe, D. L., & Pavela, G. (2004). Ten (updated) principles of academic integrity: How faculty can foster student honesty. *Change: The Magazine of Higher Learning*, 36(3), 10-15.

